



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK  
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI

## “ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI”

mavzusidagi III xalqaro ilmiy-nazariy va  
amaliy anjuman materiallari



2026-yil 12-fevral





**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA  
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK TILI  
VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON YOZUVCHILAR UYUSHMASI**

**BOBUR NOMLI XALQARO JAMOAT FONDI**

**ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR  
MEROSINING SHARQ DAVLATCHILIGI VA  
MADANIYATI RIVOJIDA TUTGAN O‘RNI**

III xalqaro ilmiy-nazariy va amaliy anjuman materiallari

**Toshkent – 2026**



## NAVOIY VA BOBUR IJODIDA TALMEH SAN'ATI VA UNING IJTIMOIY-TA'LIMIY AHAMIYATI

### THE ART OF TALMEH AND ITS SOCIO-EDUCATIONAL SIGNIFICANCE IN THE WORKS OF NAVAI AND BABUR

**G'ulomova Nargiza Sa'dullayevna**

Filologiya fanlari doktori (DSc), dots v/b.

Navoiy innovatsiyalar universiteti

E-mail: nargizagulomova099@gmail

ORCID: 0000-0002-7716-1799

DOI: [10.52773/tsuull.conf.2026./TNUN5855](https://doi.org/10.52773/tsuull.conf.2026./TNUN5855)

**Annotatsiya:** *She'riy san'atlar sharq lirikasinining tarkibiy qismlaridan biri hisoblanib, nutqqa bezak beruvchi, ularning o'ziga xos jihatlarini yorituvchi, fikrni go'zal va mazmunli ifodalash uchun xizmat qiluvchi vositadir. She'riy san'atlar, asosan mumtoz she'riyatda, ba'zan nasrda keng ishlatilgan va zamonaviy adabiyotda hozir ham qo'llaniladi. Mumtoz adabiyotda, xususan, Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur asarlarida so'z san'atining talmeh, tajnis, iyhom, tazod, tanosib singari bir qancha turlari borki, ularni o'rganish asnosida badiiy tilimiz, mumtoz o'zbek tilining qanchalik go'zalligini tushunib boraveramiz. Maqolada Navoiy va Bobur g'azalarida talmeh san'ati qo'llanilishi va uning ijtimoiy-ta'limiy ahamiyati haqida fikr yuritilib, baytlar misolida tahlil etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Mumtoz adabiyot, talmeh, badiiy tahlil, obraz, bayt.*

**Annotation.** *Poetic arts are considered one of the components of oriental lyrics, decorating speech, highlighting its unique aspects, and serving as a means for beautiful and meaningful expression of thought. Poetic arts are widely used mainly in classical poetry, sometimes in prose, and are still used in modern literature. In classical literature, in particular, in the works of Alisher Navoi and Zahiriddin Muhammad Babur, there are several types of word art such as talmeh, tajnis, iyhom, tazod, tanosib, which, when studied, we understand how beautiful our artistic language, the classical Uzbek language, is. The article discusses the use of talmeh art in the ghazas of Navoi and Babur and its socio-educational significance, and analyzes it using the example of couplets.*

**Keywords:** *Classical literature, talmeh, artistic analysis, image, couplet.*

Ma'lumki, mumtoz adabiyotimizning yetuk namoyandalari Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlar g'azalarda lirik hissiyotni ta'sirchanroq va mukammalroq ifodalash, g'azalning mantiqiy birligini ta'minlash va tarixiy badiiy, obrazlar yaratishda talmeh san'atidan mohirlik bilan foydalangan. Asarlarda qo'llangan har bir badiiy san'at namunasi badiiy vosita bo'libgina



qolmasdan, ilmiy jihatdan ham asosli bo'lishi talab etilgan. She'riy san'atlarning ilmiy jihatlari, xususiyatlari haqida asar yozgan ijodkorlardan biri Atoulloh Mahmud Husayniydir. U Navoiy rahbarligi va homiyligi ostida yashab, ijod etgan adabiyotshunoslardan biri hisoblanadi. Alisher Navoiy “Majolis un-nafois” asarida Husayniy haqida shunday yozadi: “...“Qofiya” va “Mutavassit” o'qur erdi. Donishmand bo'lg'uncha bir nav' mustahsan maoshqa muvaffaq bo'ldiki, andin ortiq mumkin ermas. Bo vujudi donishmandliq, she'r va muammo va sanoe'da dag'i mahorat paydo qildi va muammog'a ko'p mashg'ul bo'lur erdi. Holo sabaq kasratidin anga avqoti vafo qilmas, ammo sanoe'da kitobe tasnif qilibdurlar. “Badoe' Atoiy”g'a mavsumdur” [Alisher Navoiy, 1989: 72].

G'azallar tahlili mumtoz adabiyotning eng qiziqarli, shu bilan birga, murakkab qismi hisoblanadi [Isaxonova, 2023: 18]. Navoiy g'azallarini o'rganishning muhim ta'limiy ahamiyati shundaki, g'azal ta'sirchanligi hamda mazmundorligini, lirik qahramon ruhiy holatini yorqinroq ifoda etish uchun qo'llanilgan tarixiy shaxslar, tarixiy joy nomlari, etnik ko'rsatkichlar umumta'lim maktablarining geografiya, tarix darsliklarida ham o'rganiladi. Bu adabiyotda ilmi bade'da o'rganiladigan talmeh she'riy san'atiga xos namunalar bo'lsa, ta'lim tizimida fanlarning o'zaro integratsiyalashuvi hisoblanadi [Abjalova, 2023: 305]. Integratsiya – turli manbalarda mavjud bo'lgan materiallarni ma'lum bir maqsad asosida birlashtirib taqdim etishni nazarda tutadi. Ta'lim sifatining oshishida fanlararo aloqadorlik ijobiy ahamiyat kasb etib, o'quvchiga ma'lum bir mavzuni chuqurroq o'rganish imkonini beradi. O'quvchilar Alisher Navoiy korpusidagi semantik teglangan g'azallar mazmunini o'rganish jarayonida faqat adabiyot fanini emas, balki geografiya, tarix fanlaridan egallagan bilim va malakalarini ham mustahkamlab boradilar. Navoiyning komil inson tarbiyasiga oid ta'limiy-tarbiyaviy qarashlari bugungi pedagogik fikr taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etib, uning ildizlari sharq xalqlari ta'lim-tarbiya yo'riqlariga asoslanadi.


Talmeh g'azalga bir ishora orqali chuqur ma'no ifodalash imkonini beruvchi san'at hisoblanib, shoir biror tarixiy shaxs yoxud voqeaga ishora qiladi va uning yordamida fikr yo tasvir ta'sirchanligiga erishadi. U istiora, tashbeh san'atlaridan farqli o'laroq ijodkorga tarixiy yo afsonaviy voqealarga, masallar, mashhur asarlar va qahramonlar obraziga ishora qilish va shu yo'l bilan o'z fikrini mo'jaz holda kuchaytirish uchun imkoniyat tug'diradi. Navoiy g'azallarining ko'plab baytlarida insonni komillik, odamiylik tuyg'ulari bilan oshufta qilish, ham ruhan, ham ma'nan yetuklikka intilishlarini istagani holda Islom dinining muqaddas kitobi Qur'oni Karimda nomlari zikr etilgan Payg'ambarlarning nomlaridan talmeh san'atining asosi sifatida foydalangan. Jumladan, Nuh (a.s.) va Sulaymon (a.s.) haqida turli xalqlarda juda ko'plab afsona va rivoyatlar mavjud. Nafaqat turkiy, balki fors, arab shoirlari o'z she'rlarida Nuh (a.s.) va Sulaymon (a.s.) haqidagi hikoya va ularning hayotiga bog'liq voqealardan foydalanganlar. Masalan, “Rafiqing toyir andoqkim *Sulaymon* ollida hudhud”, “*Sulaymondek* bu vodiy ichra barbod o'ldi

chandinlar” “Gar Navoiyg‘a **Sulaymon** mulkicha bordur ne tong”, “Gar **Sulaymon** majmaida bo‘lmag‘ay juz Ahraman” kabi Sulaymon (a.s.) nomi bilan bo‘liq misralarni tushunish uchun kitobxon, avvalo, diniy manbalardan va uning nomi bilan bog‘liq bo‘lgan rivoyatlardan xabardor bo‘lishi kerak. Qur‘oni Karimning yigirma yettinchi “Naml” surasida Sulaymon payg‘ambar haqida bir qadar batafsil to‘xtalib, Sulaymon (a.s.) Olloh taoloning payg‘ambari bo‘lish bilan birga yana jamiki ins-u jin, parranda-yu darranda olamiga podshoh ham qilingani to‘g‘risida hikoya qilinadi [Alauddin Mansur, 1991: 271]. Mumtoz adabiyotda Sulaymon obrazi qudrat, dabdaba va hashamat timsoli hisoblansa, chumoli (mo‘r) – xokisorlik, ojizlik va donolikning timsoli sifatida ifoda etilgan bo‘lib, ko‘plab g‘azallarda bu obrazlarga bir baytda murojaat etadi:

*Ne yellanmaqdur, ey shah, mo‘r xaylidek cherigdinkim,  
**Sulaymondek** bu vodiy ichra barbod o‘ldi chandinlar.*


Baytdagi *yellanmaq* – havolanmoq, *mo‘r xayli* – chumoli to‘dasi, *cherig* – qo‘shin, *barbod* – yo‘qqa chiqmoq, chegara, *chandin* – sanoqsiz izohtalab so‘zlardir. [Adbulxayrov, 2018: 103]. Bilamizki, Sulaymon ins-u jinlar, hayvonlar tilini bilgan, ular Sulaymon alayhissalomga bo‘ysungan. Bu Alloh taolo tomonidan ato etilgan buyuk qudrat, lekin shunchalik qudratga ega bo‘lmasin, Sulaymon kabi baqo vodiysiga ketganlar talaygina, shunday ekan chumoli to‘dasidek qo‘shinga ega bo‘lgan shohning havolanishiga ne hojat?!

Gar **Sulaymon** majmaida bo‘lmag‘ay juz **Ahraman**,  
Kimga ul majma‘ aro, yo rab, nido qilg‘ay surush



Shoir ushbu baytda agar podshohning atrofini devlar egallab olishgan bo‘lsa, farishtalarning nidosini kim ham eshitadi degan fikrni ifodalamoqda va shu maqsadda **Sulaymon** va **Axraman** obrazlaridan foydalanmoqda. Axriman obrazi mumtoz adabiyotda Shaytonning muqobili sifatida ham qo‘llanadi.

**Nuh** umri-yu **Sulaymon** mulkiga yo‘qtur baqo,  
Ich, Navoiy, bodakim olam g‘ami behudadur



Bu baytda ikki payg'ambarning nomlari keltirilishi diqqatga sazovor. Baytlarda juda ko'p marotaba payg'ambarlarimizning nomlari ularning ibratli hayotlari va so'zlari zikr etilishi Navoiyning din ilmini mukammal bilganligi, Qur'oni Karimdagi sura va oyatlarga tez-tez murojaat etganini anglash mumkin. Hazrat Navoiy butun hayoti va ijodini Qur'on oyatlari, hadislar asosiga qurgan komil musulmonning ibratli namunasidir. Nuh (a.s.) – islomiyatdan avval o'tgan payg'ambar. “Nuh” surasi muqaddas kitobning 71-oyatda keltirilgan bo'lib, Qur'oni Karimda 33 marta nomi zikr etilgan “Nuh alayhissalom o'z qavmlari orasida to'qqiz yuz ellik yil turib, ularni Ollohning diniga da'vat qilgan payg'ambar hisoblanadi”. Nuh zamonasida buyuk to'fon hodisasi sodir bo'lgan. Nuh (a.s.) kema yasab, har bir hayvondan bir juftan, barcha o'simliklardan namuna olgan hamda Haqqa imon keltirganlarga najot bergan. [Alouddin Mansur, 1991: 431]. Alisher Navoiy nafaqat lirik janrda, balki nasriy asarlarida ham Nuh payg'ambar haqida muhim ma'lumotlar yozadi. Jumladan, “Muhokamat ul-lug'atayn” asarida shunday yozadi: Nuh payg'ambar salavotullohu alayhning uch o'g'lig'akim, Yofas va Som va Homdur yetushur. Va bu mujmal tafsili budurki, Nuh alayhissalom to'fon tashviridin najot va aning mahlakasidin hayot topti, olam ma'murasida bashar jinsidin osor va inson nav'idin namudor qolmaydur erdi. Yofasniki, tavorix ahli Abut-turk bitirlar, Xito mulkiga yibordi va Somniki, Abul-furs bitirlar Eron va Turon mamolikining vasatida voli qildi va Homniki, Abul-hind debdurlar, Hindiston bilodig'a uzatti. [Navoiy, 1989: 508]. Shuningdek, ushbu asarda keltirilishicha, bugungi bashariyat asli Nuh (a.s.)ning uch o'g'li avlodidanligi sabab “Odami soniy” – Ikkinchi odam Ato deb ham atashadi.

Bobur g'azallarida ham payg'ambarlarning ibratli hayotlari haqida, Olloh Taolo ularga yuborgan hidoyat va fazilatlar haqida ko'plab baytlar uchraydi: “Kim *Xizr* suyini og'izlag'ay labingning qoshida”, “Donai xoli *Masihoso* labining ustida”, “Ki, *Xizr* chashmai hayvonga rahnamoedur”, “Ey *Xizr*, bormu ekin ul suv mayi gulguncha”, “Bor, ey *Xizrki*, manga umri jovidon keldi, So'zungkim, *Xizr* suyidin nishondur” kabi. Ma'lum bo'ladiki, Bobur g'azallarida *Xizr* (a.s.) obrazidan g'azal maqsadiga etuvchi vosita sifatida foydalangan. *Xizr* – diniy manbalarga ko'ra, doimiy tirik payg'ambar. *Xizr* so'zi Qur'oni Karimda uchramaydi, ammo ko'p tafsirlarda “Baqara” surasining 65-oyatining [Qur'oni Karim, 1991: 570] mazmunini *Xizr* (a.s.) hayotiga daxldor deb hisoblaydilar. Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” (“Arab bo'lmagan shohlar tarixi”)

asarida: “Hazqil va Xizr alayhimussalom va Ilyos va Alyasa’ni ham debdurlar va Yunus alayhissalom debdurlar” deya Xizr a. haqida ma’lumot keltirsa, “Tarixi anbiyo va hukamo” asarida: Xizr (a.s.) maqdami barakotidin ul bolig‘ tirilib, talpinib o‘zin suvg‘a soldi. Muso (a.s.) Yuvsha’din ju’ daf’ig‘a nima tiladi ersa, Yuvsha’ (a.s.) aytti, zodni falon tosh ustida unutilmen” mazmundagi ma’lumotni keltiradi. “Qissasi Rabg‘uziy”da keltririshicha, Xizr (a.s.) ning asl ismi *al-Yasa’* bo‘lib, bosgan izidan maysa ko‘karib chiqqani uchun uni Xizr (yashil) deb atashgan ekan. Bobur she’riyatida Xizr obrazi mangulik ramzi, hayot timsoli, rahnamo-pir, darveshlik namunasi sifatida eng ko‘p qo‘llanilgan obrazdir. Ta’kidlash joizki, Bobur ham Navoiy singari bir qator an’anaviy obrazlarni qayta ishlab, ularning mohiyatini kuchaytiradi. Xizr va Masihga o‘xshash diniy yoki xayoliy obrazlardan foydalanib, ularning asl mohiyatiga zid bo‘lgan yangi obrazlar yaratadi:

Kim Xizr suyin og‘izlag‘ay labingning qoshida?

Kim Masih alfozidin degay kaloming borida?!

Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur lirikasida talmeh she’riy san’atini yuzaga keltiruvchi baytlarni aniqlashda joy nomlari hamda tarixiy shaxs nomlarining alohida tasniflanishi tarixiy manbalarni oson o‘rganishda qo‘l keladi. Masalan, Navoiyning quyidagi baytda to‘rt tarixiy mamlakatning nomini keltirilishi orqali talmeh san’ati yaratilgan:

Maqominga yetayin deb Navoiy aylar sayr,

Gahe **Ajam** bila **Nerez**, gahe **Hijoz-u Iroq**.

Shubhasiz, Bobur ham o‘z hayoti davomida ko‘p iztiroblar bilan birga farahbaxsh onlarni ham boshidan kechirgan shoh va shoirdir. Boburning “Qilibdur” radifli g‘azalida ham tarixiy joy nomlariga murojaat etilgan. Mazkur g‘azalning birinchi va ikkinchi baytlarda shoir o‘z shaxsiy kechinmalaridan so‘zlab, navbatdagi baytda hayotiy voqelik bayoniga o‘tadi:

Taqdirdur ul yon-u bu yon solg‘uchi, yo‘qsa,

Kinga havasi **Sanbal**, **Tatyir** qilibtur.

Mazkur baytda ayni tarix aks etgan bo‘lib, Bobur she’rlarining ayrim zamonaviy nashrlarida ostiga chizilgan o‘rin “havas Sanbalu, tatyir” “havasi Sanbalu Tatyir” deb berilgan hamda “Sanbal” va “Tatyir” “Hindistondagi joylar nomi” deya izohlangan. Ba’zilarida hatto “sunbuli tatyir” yoki “sunbulu taqdir” tarzida g‘alati berilgan [Abjalova, G‘ulomova, 2023: 659]. Sanbal Hindistonning bir viloyati bo‘lib, “Boburnoma”da ham keldi: Muhammad ko‘kaldosh ga Samana viloyatini hadya etib, *Sanbalga* yurish uchun ilg‘or tayinlandi. Hitori Feruza Humoyunga mukofot tariqasida berilgan edi, *Sanbalni* ham Humoyunga hadya qildim. Hindubek Humoyunning oldida qolgan edi. Shu bois Muhammadiyning o‘rniga *Sanbalg‘a* ilg‘or qilib Hindubek, Kattabek, Malik Qosim Bobo Qashqa aka-ukalari bilan, Mullo Ofoq, Shayx Guran Miyoni duob yoychilari bilan ilg‘or qilib yuborildi. Qosim Sanbaliydan uch-to‘rt marta odam kelib, Biban haromxo‘r



*Sanbalni* qamal qilib, uning himoyasini zaif-lashtirdi, ilg'or yuboringlar, degan xabarni berdi [Bobur, 2018: 221].

Tezkorlikka moslashgan bugungi kitobxonlarni, talaba yoshlarni tarixiy, afsonaviy shaxslar, joy nomlari bilan qiziqarli va qulay sharoitda tanishtirish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalasi hisoblanadi. Shu ma'noda bugun insoni kreativ tafakkurining o'sishi, axborotlashuv, globallashtirish kabi taraqqiyot ko'rinishlari mamlakatimizda tildan foydalanuvchilarning ongi va dunyoqarashini ham tubdan o'zgartirdi [Sirojiddinov, Abjalova, Normamatov, G'ulomova, 2024: 49]. “Xazoyin ul-maoniy” kulliyotidagi Alisher Navoiy mualliflik korpusidan she'riy san'atlar ruknidan mavjud 883 talmehning 9 tasi Sulaymon (a.s.), 15 tasi Nuh (a.s.), 33 ta Nuh (a.s.) nomlari bilan bog'liq tahlillardir. Alisher Navoiy mualliflik korpusiga kiritilgan talmeh she'riy san'ati orqali keltirilgan tarixiy shaxslar, aziz avliyolar va tarixiy joylar, mashhur maskan nomlarining semantik teglanishi natijasida o'quvchilarda moziydagi mashhur shaxslar, ilohiy kitoblarda keltirilgan payg'ambarlar, to'qima obrazlar, muqaddas qadamjolar, asar nomlari borasidagi bilimlari shakllantiradi va rivojlantiradi.

Milliy merosimizning zamonaviy axborot-kommunikatsiya tizimida keng qo'llanishiga erishish, buning uchun ajdodlarimiz asarlarini yoshlar o'rtasida targ'ib etish, mumtoz adabiyot namunalarini o'qishli va tushunarli tarzda taqdim etuvchi filologik korpuslarni yaratish, jumladan, Alisher Navoiy mualliflik korpusini takomillashtirib, kulliyotdagi boshqa janrlarda uchragan talmeh san'atini korpus bazasiga biriktirish bugunning muhim vazifasidir [G'ulomova, 2024: 304]. G'azallardagi tarixiy, adabiy, mifik shaxslar, geografik va etnik joy nomlari ishtirok etgan baytlar badiiy nuqtayi nazardan talmeh san'atini yuzaga keltiradi, eng asosiysi, o'quvchi baytdagi izohtalab so'zlarning mazmunini aniqlash jarayonida tarixiy, badiiy shaxslar va geografik, etnik joy nomlari haqida ham ma'lumotga ega bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytish o'rinliki, mutafakkir ijodini turli zamonaviy yondashuvlar asosida tadqiq etish va amaliyotga joriy etish ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. Ta'lim jarayonida adabiyot darg'alari ijodiga bot-bot murojaat qilishning asosiy sababi ijodkor iste'dodining serqirraligi, teran mulohazaga yetaklovchi yuksak saviyadagi asarlarining mavjudligi, shuningdek, ularga berilgan jahoniy e'tiroflar, asarlaridagi badiiy-estetik g'oyalarning san'atkorona ifodalari bilan bog'liq. Shu bois uzluksiz ta'lim tizimida yangi davr Milliy o'quv dasturida Alisher Navoiy hayoti va ijodini ta'lim va tarbiya berishda o'rganish boshlang'ich hamda yuqori sinf o'quvchilarida milliy g'ururni yuksaltiradi. Milliy g'urur insonni ma'naviy jihatdan shakllantirishning bosh omili hisoblanadi. O'quvchilarning Navoiyona aks etuvchi nodir adabiy durdonalarning falsafiy, ilohiy-irfoniy mohiyatini his qilishda, mag'zini anglashda umumta'lim maktablari uchun yaratilayotgan o'quv dasturlarining ahamiyati katta hisoblanadi.



### Adabiyotlar:

1. Abjalova M. G'ulomova N. Alisher Navoi and the third renaissance period. *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*. Vol. 4 (2023). 28.02.2023. – P.111-115. ALISHER NAVOI AND THE THIRD RENAISSANCE PERIOD | *Procedia of Theoretical and Applied Sciences*.
2. Abjalova M. Создание авторского корпуса Захириддина Мухаммад Бабур – требование периода. Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TURKLANG 2023» Труды конференции. – Qozon: Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasining nashriyoti, 2023. – С. 305-310.
3. Abjalova M., Gulomova N. Author's Corpus of Alisher Navoi and its Semantic Database. // *IEEE – UBMK – 2022: 7th International Conference on Computer Science and Engineering*. 24-26 September 2022. – Diyarbakir, Turkey. – pp. 182-187. Impact Factor 5.5. DOI: 10.1109/UBMK55850.2022.9919546
4. Abjalova M., Gulomova N. Creation of a Linguistic Database for Alisher Navoi Authorship Corpus. Одиннадцатая международная конференция по компьютерной обработке тюркских языков «TURKLANG 2023» Труды конференции. – Qozon: Tatariston Respublikasi Fanlar akademiyasining nashriyoti, 2023. – С. 659-669.
5. Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug'atayn. Tola asarlar to'plami. O'ninchi jild.
6. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Navodir ushshabob” devonidagi g'azallarni grammatik teglash xususiyatlari. O'zMU xabarlari // *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali*. – Toshkent, 1/3/1 2024. ISSN: 2181-7324. – B.72-76.
7. G'ulomova N. Alisher Navoiy mualliflik korpusi uchun “Xazoyin ulmaoniy” kulliyoti g'azallarining tanlanishi. O'zMU xabarlari // *Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti ilmiy jurnali*. – Toshkent, 1/6 2024. ISSN: 2181-7324. – B.303-305.
8. Husayinboyeva Q., Niyozmetova R. *Adabiyot o'qitish metodikasi*. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2020. – B.28.
9. Ishonxanova I. *Ta'lim tizimida Alisher Navoiy hayoti va ijodini o'rganishga innovatsion yondashuv: Filol. fan. b. fals. dok. ... diss.* – Chirchiq, 2023. – B.18.
10. Sirojiddinov Sh., Abjalova M., Normamatov S., Gulomova N. “The Problem of the Archaic Words' Semantic Description in the Alisher Navoi Authorship Corpus,” 9 th International Conference on Computer Science and Engineering (UBMK), 26-28 october, 2024. Antalya, Turkiye, – pp. 48-53.
11. Захириддин Мухаммад Бобур. Бобурнома. – Тошкент: Ўқитувчи, 2008. – Б.221.
12. Исҳоқов Ё. Сўз санъати сўзлиги. – Тошкент: Ўзбекистон, 2013. – Б.203.
13. Қуръони Карим. Ўзбекча изоҳли таржима (Алоуддин Мансур таржимаси). – Тошкент: Чўлпон, 1991. – 540.